

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “MATEMATIKA” DARSLARIDA VAQTGA DOIR MASALALARNI O‘RGATISH METODIKASI

Xayriyeva Maxliyo Pardayevna

Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 38-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada matematik masala, boshlang‘ich sinflarda “vaqt” tushunchasining o‘rganilishi, vaqtga doir masalalarni yechishga o‘rgatish haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, masala, vaqt, sekund, soat, millisekund, kun, oy, tafakkur, xotira, ko‘nikma, mantiqiy fikrlash.

ABSTRACT

This article covers a mathematical problem, the study of the concept of "time" in elementary grades, and teaching to solve time-related problems.

Key words: mathematics, problem, time, second, hour, millisecond, day, month, thinking, memory, skill, logical thinking.

Matematika bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, matematika o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash malakasini oshirishi, ularning o‘z fikrlarini aniq, to‘g‘ri va tushunarli bayon etishi uchun zamin hozirlaydi. O‘qituvchining vazifasi - bolalarga matematikani o‘qitishda bu imkoniyatlardan samarali foydalana olishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi 4708-sonli Qarorida iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning matematika fani bo‘yicha mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini, sovrinli o‘rinlarni egallashini ta‘minlash matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida ta‘lim muassasalarida TIMSS xalqaro baholash dasturida o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ishtirok etishlari uchun bir qator ishlar olib borilmoqda.

Bola maktabdagi mashg‘ulotlarning birinchi kunidayoq masala bilan uchrashadi. Birinchi sinf o‘quvchilari bilan qilinadigan dastlabki suhbatlarning birida o‘qituvchi o‘quvchi qanday hayotiy tajriba va bilimga ega ekanligini aniqlash maqsadida eng oson masalaga murojaat etadi. Masalan: “Sening to‘rtta qalaming bor edi. Sen yana bitta qalam olding. Sendagi qalamlar nechta bo‘ldi?”


Matematik masala o‘zi nima?

Matematik masala - bu bog‘liqli ixcham hikoya bo‘lib, unda ba‘zi kattaliklarning qiymatlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ularga bog‘liq va masala shartida ular bilan ma‘lum munosabatlar orqali bog‘langan boshqa kattaliklarning qiymatlari izlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda “vaqt” tushunchasi 1-sinfdanoq kiritiladi. 2-sinfdan vaqtni aniqlashga doir topshiriqli misol va masalalar o‘rgatiladi. Masalan, “Feruzaning yakshanba kuni uyga vazifa qilib berilgan she‘rni yodlash uchun yarim soat vaqti ketdi. Agar u she‘r yodlashni soat 10:00 da boshlagan bo‘lsa, nechada tugatgan?”, kabi masalalarni yechishda o‘quvchilar sarflangan vaqtni topishga va vaqtni aniqlashga o‘rganadilar.

3-sinfdan “Vaqtga doir masalalar yechish” bo‘limida masalalar biroz murakkablashadi. Hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga ham e‘tibor qaratiladi.

- 1 Bir oydagi kunlar sonini eslatuvchi yana bir usul – bu barmoq bo‘g‘inlaridir. Tepaliklar 31 kun, bo‘g‘inlar orasi 30 kundan deb hisoblang. Fevral 28 kun. Kabisa yilida esa fevral 29 kun bo‘ladi. Har bir oyning kunlar sonini yozib chiqing.



Oy	Kun
Yanvar	
Fevral	
Mart	
Aprel	
May	
Iyun	

Oy	Kun
Iyul	
Avgust	
Sentabr	
Oktabr	
Noyabr	
Dekabr	

O‘quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida bevosita o‘z barmoq bo‘g‘inlari orqali oylarning necha kundan iboratligini aniqlash ko‘nikmasini hosil qiladilar.

4-sinfda ushbu masalalar yana ham murakkablashtirilib, “millisekund” tushunchasi kiritiladi.

- 2 Maktabda 4-sinflar o‘rtasida 60 m ga yugurish bo‘yicha musobaqa o‘tkazildi. Jadvalda eng tez yugurgan 3 ta o‘quvchining natijalari keltirilgan.

O‘quvchining ismi	Yugurgan vaqti	O‘rni
Anvar	10 s	
Olim	9 s 500 ms	
Kamol	10 s 300 ms	

Millisekund (ms) ham vaqt o‘lchov birligi bo‘lib, u sekund (s)ning 1000 dan bir ulushini tashkil etadi:

$$1 \text{ s} = 1000 \text{ ms}$$

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf matematika darslarida vaqtni topishga doir masalalarni yechishda o‘qituvchi ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga, bevosita hayotiy misollar orqali masala mazmunini tushuntirishga harakat qilishi dars samaradorligi va o‘quvchilar tafakkurining oshishiga ijobiy ta’sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4708-sonli Qarori. –lex.uz.
2. Haydarov B va boshqalar. Matematika. 2-sinf. Darslik. Toshkent-2022
3. Haydarov B va boshqalar. Matematika. 3-sinf. Darslik. Toshkent-2022
4. Haydarov B va boshqalar. Matematika. 4-sinf. Darslik. Toshkent-2022
5. Jumayev M. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. –T.: Fan va texnologiyalar, 2005 y.